DOI10.5281/zenodo.8402510

MAJIDOV FAXRIDDIN ABDURAZZOK O‘G‘Li
“University of business and science” nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

ABDUG‘ANIYEV MURODJON SHAVKAT O'G'LI
“University of business and science” nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHDA KAMBAG’ALLIK TUSHUNCHASI VA UNI TAVSIFLASHGA BO’LGAN YONDASHUVLAR TAHLILI

Ma’lumki, kishilar tabiatan jismoniy va aqliy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ularning ish qobiliyati, bilimi, malakasi, mahorati ishbilarmonligi birligida ko’rinadi. Lekin kishi qobiliyatining kamol topishi, rivojlanishi va uning yuzaga chiqishi ijtimoiy sabablarga bog’liq jihatlari ham bor. Jamiyatda inson savodli, qobiliyatli va egallagan malakasiga yarasha ish bilan band bo’lishi, umuman, foydali faoliyat bilan shug’ullanishi shart[19]. Biologik jihatdan esa har bir kishi bir xil iste’dodga ega emas, qobiliyatlarda tafovut tabiatan mavjud. Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, kishilarda tug’ma qobiliyatning o’zi yetarli bo’lmay, uni ishga solish imkoniyatlari va iqtisodiy-siyosiy tizim ham bevosita tengsizlikka ta’sir etadi. O’z navbatida daromadlardagi tengsizlik turmush darajasini ham tabaqalashuviga olib keldi. Bu farq, avvalo, shahar bilan qishloq aholisi o’rtasida, ayrim kishilar, oilalar, jamoalar va hududlar o’rtasida kuzatiladi va kishilarni jamiyatda “boy”, “o’rtahol”, “mulkdor” yoki “kambag’al” va “qashshoq” degan mavqelarni vujudga keltirdi[20]. Kishilar daromadidagi tabaqalashuv esa aholi turmush darajasi ko’rsatkichlarini farqlanishini ham boshlab berdi va turli davlatlarda turli xil ko’rinishda namoyon bo’ldi. Kambag’allik va boylik muammosi azaldan mavjud bo’lib, doimo ijtimoiy muammolar hamda ziddiyatlarni hattoki quroli to’qnashuvlarni keltirib chiqargan. Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning tengsizligi mavjud bo’lar ekan, bu ma’lum darajada mulkiy tengsizlikni keltirib chiqaradi natijada boy va kambag’allik real voqelikka aylandi.

Kambag’allik muammosi, unga ta’sir etuvchi omillar, kambag’allikni qisqartirish yuzasidan bir qator olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumaladan, Nobel mukofoti sovrindori Amartiya Sen[21] asarlarida aholi farovonligiga erishish, kambag’allikni kelib chiqish sabablari, kambag’allikni kamaytirish uchun bilim egallash, aholi salomatligi va insonlarni uzoq umr ko’rishi, kasalliklardan holi bo’lish va boshqa imkoniyatlarni insonlarga yaratish zarurligi batafsil ilmiy jihatdan o’rganilgan.

Jahonda kambag’allikni pasaytirish bo’yicha olib borgan tadqiqoti uchun amerikalik Maykl Kremer va kelib chiqishi asli hindistonlik bo’lgan Abxidjit Banerdji hamda uning rafiqasi Ester Dyuflo 2019 yili Nobel mukofotiga sazovor bo’ldilar. Ular kambag’allikni aniqlash va uni bartaraf etish borasida ijtimoiy innovatsiyalarni tadbiq etishdi[22].

2015 yilda “Iste’mol, kambag’allik va farovonlikni tahlil qilgani uchun” Nobel mukofoti sovrindori bo’lgan, amerikalik iqtisodchi olim Angus Styuart Diton iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlaydigan va kambag’allikni kamaytiradigan iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun birinchi navbatda ahamiyatli omillar sifatida har bir iste’molchi qanday tanlov qilishini, aholi daromadlari va qiyin vaqtlarda aholi iste’mol darajasi o’rtasidagi bog’liqlikni tahlil qildi[23]. Daniyalik olim Gesta Esping – Anderson[24], amerikalik olim Djeffri Saks[25] va boshqa olimlar tomonidan kambag’allik masalasi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizim muammolari bilan bog’liq holda hamda aholi farovonligi muammolari sifatida tadqiq etilgan.

Klassik iqtisodchi olimlar ham o’z asarlarida ham qambag’allik muammosiga munosabatlarini bildirganlar va kelib chiqish sabablarini tahlil etganlar. Klassik iqtisodiy

https://wordlyknowledge.uz

maktab asoschilari bo'lgan A.Smit, T.Maltus, D.Rikardolar kambag'allikni an'anaviy jamiyatni sanoatlashgan jamiyatga aylantirishning muqarrar natijasi deb hisoblashgan. XIX asrning o'rtalarida keng tarqalgan darvinizm mafkurasi kambag'allikni tabiiy hodisa sifatida dastlab ma'lum bir shaxsda irqning, hayotning davomi uchun o'zini himoya qilish qobiliyatiga ega emasligini anglatadi deb hisoblaydi. Frantsuz iqtisodchisi, faylasuf P.J. Prudon (1809-1865 yillar) fikriga ko'ra, siyosiy iqtisodning eng muhim qonuni qashshoqlik qonunidir. Sanoatdagi har qanday taraqqiyot va ishlab chiqarish munosabatlarini yaxshilanishi bu yerda yordam bermaydi. "Qashshoqlik - bizning tabiatimiz qonunidir. Bu bizni iste'mol qilishimiz kerak bo'lgan narsalarni ishlab chiqarishga majbur qiladi, ammo mehnat uchun eng zarur narsadan boshqa narsa bermaydi"[26] olim kambag'allikni tabiatning o'zgarmas hodisasi sifatida qaraydi.

Neoliberalizm mafkurachisi Fon Xayek kambag'allikni insoniyat taraqqiyotidagi tabiiy hodisa va u jamiyat manfaati uchun zarur deb qaraydi[27]. Oxirgi paytlarda kambag'allik, asosan daromadning borligi yoki yo'qligi nuqtai nazaridan, insonning kambag'alligi ko'proq uning yaxshi ovqatlanish imkoni yoki yashash uyining qandayligi bilan belgilanmoqda. Ammo, kambag'allik daromadning yoki insonlarning iste'mol uchun qabul qilgan kaloriyalarning kamligiga qaraganda g'oyat keng ko'lamdagi tushunchadir. Bu – uzoq, sog'lom va ongli hayot kechirish hamda yaxshi turmush darajasi, ozodlik, qadr-qiymat, g'urur va o'zgalarni ham qadrlash darajasiga erishish uchun keng ko'lamda zarur bo'ladigan imkoniyatlar va tanlash huquqidan mahrumlikdir[28].

Kambag'allik – individ yoki oilaning asosiy ehtiyojlari ularni qanoatlantirish uchun mavjud bo'lgan mablag'lardan ko'proq bo'ladigan bir holat[29]. Iqtisodchi olim N. Beknozovning fikricha, kambag'allik – kishi o'zining asosiy ehtiyojlari uchun pul mablag'lari yetarli bo'lmagan, mulk va boshqa resurslar bilan nisbatan kam ta'minlangan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining past darajada qondirilishidir[30].

Rossiyalik iqtisodchi A.A. Razumovning fikricha, kambag'allik ijtimoiy hayotning turli sohalariga ta'sir qiladi, u ma'lum bir shaxsning, ma'lum oilaning va umuman jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu aholining sifat ko'rsatkichlarining yomonlashishiga, ijtimoiy-iqtisodiy va gender tengsizligining oshishiga olib keladi, muvaffaqiyatli ijtimoiy rivojlanish uchun tormoz bo'lib, ijtimoiy ofatlarning sababchisi bo'lishi mumkin. Kambag'allik - nafaqat oziq-ovqat va kiyim-kechak, uy-joyning etishmasligi, odamlar uchun zarur bo'lgan ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning etishmasligi. Va bu nafaqat hayot uchun zarur bo'lgan hamma narsani, hech bo'lmaganda eng past darajada olish uchun etarli pul etishmasligidir. Rossiya kambag'alligining o'ziga xos xususiyati shundaki, rus kambag'allarining 50 foizdan ortig'i mehnatga layoqatli, shu jumladan 42 foizi ish bilan band. Qambag'allik borasidagi bu ko'rsatkichlar haqiqatan ham Rossiya mehnat bozorida hamma narsa "xavfsiz" emasligini ko'rsatadi. Agar mehnat bozorida mavjud bo'lgan munosabatlar va zamonaviy ish bilan ta'minlash va ish haqi sxemalari ishchilar orasida bunday yuqori darajadagi qashshoqlikka olib keladigan bo'lsa, bu tub iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy siyosat choralari yo'qligi yoki ularning samarasi yo'qligi va yuqorida aytib o'tilganlar ushbu masalalarning ilmiy asoslanmaganligidan dalolat beradi[31].

Norvegiya xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti tadqiqotchisi, iqtisodchi Daniyar Moldokanovning fikricha, kambag'allik – bu ko'p qirrali hodisadir. Bu nafaqat odamlarning qancha pul topishini, balki odamlarning uy-joyini bor yoki yo'qligini, ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkonini namoyon qiladi. Kambag'allik daromad ko'rsatkichlari orqali o'lchanadi va statistik idoralar tomonidan uy xo'jaliklarini o'rganish orqali iste'mol ko'rsatkichlari aniqlashtiriladi. Barcha kambag'allik ko'rsatkichlari inson iste'molining pul ekvivalenti bilan bog'liq bo'ladi. CHunki odamlarning turli tovar va xizmatlarni iste'moli

https://wordlyknowledge.uz

avvalo ularning tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirilishi bilan bog'liqdir[32]. Mashhur iqtisodchi olimlar S. Fisher, R. Dornbush va R. Shmalenzilar fikricha, kambag'allar – bu daromadlari jamiyatning hozirgi iste'mol standartlari doirasida ehtiyojlarini qondirish uchun yetarlicha yetarli bo'lmagan jismoniy shaxslar va uy xo'jaliklaridir. Ba'zi oilalar jismonan tirik qolishga imkoniyati mavjud bo'lsada, ahlokiy-madaniy jihatdan cheklanadi. Boisi ularning daromadlari median darajadan ancha past bo'ladi[33], deb ta'kidlanadi. Zamonaviy iqtisodiy nazariya otasi hisoblangan Adam Smit kambag'allik – bu inson tabiati yoki odat bo'yicha talab kilinadigan ehtiyojni sotib olishga qurbi yetmasligidir, deb ta'rif beradi . U ta'rifda jamiyat odatlari keltirib chikargan ehtiyojlarni ham e'tiborga olish orqali kambag'allik zamirida nisbiylik elementi ham mavjudigiga ishora qiladi, biroq o'sha davrlarga xos tarzda moddiy ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini ko'rib chikish bilan cheklanadi .

Kambag'allikning mutloq o'lchovini kiritish bilan sohaga ulkan hissa qo'shgan sotsiolog tadqiqotchi olim Rountri o'zining tug'ilgan shahri Yorkda (Buyuk Britaniya) oilalar orasida kambag'allikni o'lchash maqsadida ma'lumot to'plashga qaror qiladi, uning maqsadi kambag'allikni o'lchash bilan cheklanmay, uning tabiatini o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Natijada kambag'allikning dastlabki ta'riflaridan biri keltiriladi va Rountri fikriga ko'ra kambag'al oila – umumiy daromadlari jismoniy samaradorlikni ta'minlash uchun minimal ehtiyojlarni qoplashga ham yetarli bo'lmagan oiladir. Mazkur ta'rifga to'g'ri keluvchi oilalar salmog'ini hisoblash uchun Rountri daromadga asoslangan kambag'allik chegarasini yaratdi . Bunda daromad oila a'zolarining ozuqaviy ehtiyojlari, kiyim-kechak va uy anjomlarini eng kam miqdorda qondirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'i bilan o'lchandi va hozirda keng qo'llanilayotgan kambag'allik chegarasi kontseptsiyasiga asos solindi.

Bugungi kunda shakllangan qarashlarda esa kambag'allik birlamchi ehtiyojlardan tashqari, shaxsning ijtimoiy hayoti bilan bog'lik ehtiyojlarni ham aks ettiradi. Kambag'allik nazariyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan A.Sen nisbiy ta'rif tarafdorlari va mutlaq nuktai nazarni qo'llab-quvvatlovchilar orasidagi munozaraga oydinlik kiritdi. U yuqorida keltirilgan ikkala yondashuv ham kamchilikdan xoli emas, deya tanqid kildi. A. Senning fikriga ko'ra, kambag'allik, aslida, insonning imkoniyatlari doirasida mutloq mahrumligi bo'lsada, u ko'pincha tovar, daromad va resurslardan nisbiy mahrum bo'lish orqali ifodalanadi . U mahsulotlarning minimal darajasi har bir odam uchun bir xil emasligini ta'kidladi (masalan, odamlar jinsi, yoshi yoki geografiya zonasidagi iqlim sharoitiga qarab turli xil ozuqaviy ehtiyojlarga egadir). Muhimi, tovarlarning o'zi emas, balki ulardan foydalanish, ya'ni har bir inson tovarni farovonlikka aylantirish qobiliyatidir. SHu asnoda, Senning kambag'allik kontseptsiyasi nisbiy bo'lsada, uning taklif qilgan o'lchov usuli mutlaqdir: kambag'al inson – bu jamiyatning boshka a'zolarining imkonlaridan qat'iy nazar, minimal imkonlarga ega bo'lmagan kishidir.

Iqtisod fanlari doktori, akademik R. Abdullaevning fikriga ko'ra, "Kambag'allik" deganda – individ yoki ijtimoiy guruhning shunday iqtisodiy holatini tushunish kerakki, bunday holatda ular yashash, mehnat qobiliyatini saqlash, ko'payish uchun zarur bo'lgan ma'lum minimal ehtiyojlarini qondira olmay qoladilar. "Qashshoqlik" yoki haddan tashqari kambag'alchilik, mutlaq kambag'allik, deganda esa – bu odamlarning, masalan, oziq-ovqat, ichimlik suvi, turar-joy kabi asosiy ehtiyojlari tanqislik bilan tavsiflanadigan holat, tushunilishi kerak .

"Qashshoqlik tushunchasi aholi guruhlarining shunday ahvolini tavsiflaydiki, ushbu jamiyatdagi oqilona minimumga muvofiq bo'lgan farovonlik darajasiga erishish mumkin bo'lmaydi"[34]. Demak, biz terminlarning mazmun-mohiyatini anglagan holda bir-biridan farqlashimiz kerak bo'ladi. Biroq hozirda dunyo mamlakatlari bo'yicha kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rifi ishlab

https://wordlyknowledge.uz

chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi. (BMTning "Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti"dan). Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib, alohida qabul qilingan kambag'allikni aniqlash uslubiyoti asosida jami daromadi (yoki xarajati) belgilangan kambag'allik chegarasiga yetmagan aholi qatlamini kambag'al, hayot kechirishi uchun zaruriy ehtiyojlarini mutlaqo qondirish imkoniyati bo'lmagan qatlamni esa qashshoq aholi deb e'tirof etish mumkin.

Inson ongi va neyrologik xususiyatlarini o'rgangan olim Jensen kambag'allik – bir qancha xavf-xatar omillarining inson ongi, tanasi va ruhiga nojo'ya ta'sir qilish orkali surunkali ravishda zaiflashtiruvchi vaziyat – holat, degan xulosaga kelgan . U kambag'allikni shartli ravishda olti turga bo'lib o'rgangan: vaziyat, avlodlar, mutlaq, nisbiy, urban va qishloq kambag'alligi. Quyida sanab o'tilgan turlarning xususiyatlari keltirilgan.

1. Vaziyat bo'yicha kambag'allik to'satdan inqiroz yoki mahrum bo'lish tufayli kelib chiqadi va ko'pincha vaqtinchalik bo'ladi. Mazkur kambag'allikni keltirib chiqaruvchi hodisalar qatoriga ekologik ofatlar, ajralish yoki sog'liq bilan bog'lik jiddiy muammolar kiradi.

2. Avlodlar kambag'alligi kamida ikkita avlod qashshoqlikda tutilgan oilalarda vujudga keladi. Ushbu turdagi kambag'allik xos bo'lgan oilalar o'z holatlaridan chiqib ketish vositalari bilan ta'minlanmagan bo'ladi.

3. Mutlaq (absolyut) kambag'allik o'z ichiga boshpana, ichimlik suvi va oziq-ovqat ehtiyojlarining ta'minlanmaganligini qamrab olib, mutlaq kambag'al oilalar o'z e'tiborlarini kunlik tirikchilikka karatishadi.

4. Nisbiy kambag'allik, bu daromadi jamiyatning o'rtacha yashash darajasida turmush kechirishni qoplay olmaydigan oilalar iktisodiy holatidir.

5. Urban yoki shahar qashshoqligi kamida 50000 aholi yashaydigan shaharlarda uchraydi. Shaharning kambag'al aholisi olomon, zo'ravonlik, shovqin bilan bog'liq surunkali va o'tkir stresslarni boshdan o'tkazadi va ko'pincha katta shaharlarning nomutanosib xizmatlariga qaram bo'ladi.

6. Qishloqdagi kambag'allik aholisi 50000 dan kam bo'lgan hududlarga xosdir. Qishloq joylarda bir boquvchili oilalar ko'p uchraydi, oilalarning nogironlarni qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanish, sifatli ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Qishloqlarda kambag'allik darajasi ortib bormoqda.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ham kambag'allik tushunchasiga ta'riflar berilgan hamda bu yondashuvlar muayyan xususiyatlarga ega. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan kambag'allik kategoriyasiga quyidagicha qarash mavjud. "Kambag'allik – bu tanlov va imkoniyatlarni yetishmasligi va insonlar qadr-qimmatini poymol qilinishi bo'lib, insonlarni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etishdagi imkoniyat hamda qobiliyatining yetishmasligini anglatadi. Bu degani, oila uchun belgilangan miqdorda oziq-ovqat va kiyim-kechak yo'qligi, o'qish uchun maktab yoki poliklinikaning mavjud emasligi, oziq-ovqat yetishtirish uchun yerning, pul topish uchun ishlashning va kredit olishga zarur sharoitning yaratilmaganidir. Shuningdek, odamlar, uy xo'jaliklari va boshqa iqtisodiy sub'ektlar xavfsizligi ta'minlanmaganligi, noqulay sanitariya sharoitida yashashini anglatadi".

Bu ta'rifda kambag'allikning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy turlariga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Inson jamiyatdagi barcha siyosiy jarayonlarda faol

https://wordlyknowledge.uz

ishtirokchi bo'lishi, buning uchun dastlabki zaruriy moddiy neьmatlar bilan ta'minlanishi, bilim olishi va turli kasalliklarda davolanishi kerak bo'ladi. Bunda ish o'ringa ega bo'lish, biznesni yuritishda kredit olish mexanizmlarini yaratilganligiga jiddiy qaraladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1992 yilning 12 dekabrida A-RES-47-196-sonli rezolyutsiya qabul qilib, har yili 17 oktyabrni "Xalqaro qashshoqlikka qarshi kurash kuni", deb e'lon qilgan.

Jahon banki uchun ham kambag'allik muammosini qisqartirish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, uning tomonidan kambag'allik kategoriyasi quyidagicha izohlanadi. "Kambag'allik – ko'p o'lchamga ega bo'lib, insonlarni aniq daromadlarga ega bo'lmasligidir. Bu kam daromadga ega insonlarni yashash uchun zarur bo'lgan asosiy tovar va xizmatlarni yetarli darajada sotib ololmasligi, shuningdek, sog'liqni saqlash va ta'limning yomonligi, toza suv va sanitariya sharoitining yomonlashib borishi, xavfsizlikni yetarli emasligini bildiradi" . Bu ta'rifning muhim jihati shundaki, kambag'allikning sababi sifatida yetarlicha bo'lmagan daromadlarga e'tibor beriladi. Aholi daromadlarini kamligi yoki umuman yo'qligi tirikchilik vositalarini sotib ololmasligini keltirib chiqaradi. Yetarlicha ovqatlanmaslik esa kasallik hamda kambag'allikka yo'l ochadi. Bugungi kunda har ikki xalqaro tashkilot o'z faoliyatida umumjahon muammolarga xususan, jahonda kambag'allikni qisqartirishga alohida e'tibor bermoqda.

Kambag'allik aholi turmush darajasining ijtimoiy taraqqiyot bosqichi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda jamiyatda qabul qilingan ob'ektiv mezonlar nuqtai-nazardan aholi turmush darajasi ifodasi bo'lib maydonga chiqadi. Eng umumiy yondashuvda har bir davlatning eng muhim va asosiy vazifalaridan biri-aholi turmushining darajasi va farovonligini oshirish hisoblanadi. CHunki aholi turmush darajasi tarixiy kategoriya bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot darajasiga mos keluvchi hayot sharoitlarini yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi hamda mamlakatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradigan muhim indikatorlar qatoriga kiradi.

Har bir mamlakatda kambag'allik muammosini kamaytirish orqali aholi farovonligini yaxshilanishiga asta-sekin yo'l ochiladi. Kishilar turmushining tobora yaxshilanib, yangi sifat darajasiga o'sib borishi kishilik jamiyati rivojlanishining barcha bosqichlarida namoyon bo'ladigan o'ziga xos bo'lgan umumiy belgi sanaladi. Ishlab chiqarishning ijtimoiy samarasi kishilar farovonligida, ya'ni darajasi va sifatida namoyon bo'lib, har qanday ishlab chiqarishdan maqsad esa aholini tirikchilik vositalariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi.

https://wordlyknowledge.uz